SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 1
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

QADIMGI YUNONISTON FALANGASI, RIM LEGIONLARI VA MARKAZIY OSIYO OTLIQ QO‘SHINLARI: O‘XSHASHLIK VA FARQLARNING QIYOSIY TAHLILI

Hasanova Sarvara To‘xliboy qizi

Farg‘ona davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qadimgi Yunonistonning goplit va Makedoniya falangasi, Rim legionlari hamda Markaziy Osiyoda yashagan sak, massaget va parfiya xalqlarining otliq qo‘shinlari qurollanish tizimi, jangovar tuzilishi va harbiy taktikasi qiyosiy-tarixiy tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqotda yunon falangasining zich va mustahkam saf tuzilishi, Rim legionlarining manipula va kogortalarga tayangan moslashuvchan jangovar tizimi, shuningdek, Markaziy Osiyo ko‘chmanchi xalqlariga xos tezkor otliq kamonchilar va og‘ir qurollangan kataphraktlarning harbiy usullari yoritiladi. Ushbu qo‘shin turlarining afzallik va kamchiliklari Gavgamela, Kan, Pidna hamda Karrax janglari misolida tahlil qilinib, ularning harbiy san’at taraqqiyotidagi o‘rni ochib beriladi. Tadqiqot natijasida yunon harbiy tizimi piyoda qo‘shinlarning zarba kuchiga, Rim armiyasi qat’iy intizom va yuqori darajadagi moslashuvchanlikka, Markaziy Osiyo xalqlarining harbiy an’analari esa harakatchanlik, uzoq masofadan zarba berish va manevr ustunligiga asoslangani ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar

Falanga, sarissa, legion, manipula, kogorta, gladius, pilum, sak, massaget, kataphrakt, Karrax jangi.

KIRISH

Jangovar tuzilma va qo‘shin tashkiloti tarixi insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotining ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat davlatlarning harbiy qudratini, balki ularning ijtimoiy tuzumi, iqtisodiy imkoniyatlari va texnologik darajasini ham aks ettiradi. Qadimgi davr jahon tarixida uchta yirik harbiy an’ana — Yunon falangasi, Rim legioni va Markaziy Osiyo ko‘chmanchi xalqlariga xos otliq qo‘shin tizimi — o‘zaro keskin farq qiluvchi, ammo bir-biriga doimiy ta’sir ko‘rsatib kelgan uch xil harbiy falsafani ifodalaydi. Yunon goplitlari va keyinchalik Makedoniya falangasi piyoda jangchilarning zich saf tortgan kuchiga, Rim legionlari intizom, moslashuvchanlik qobiliyatiga, Markaziy Osiyoning sak, massaget hamda parfiya xalqlari esa ot ustida tezkor harakat qilish va masofadan kamon bilan otishga asoslangan harbiy mahoratga tayangan. Mazkur uch tizim mil. avv. I ming yillik davomida bir necha bor to‘qnashgan bo‘lib, har bir to‘qnashuv jahon harbiy

tarixi taraqqiyotida burilish nuqtasi vazifasini o‘tagan. Xususan, miloddan avvalgi 331-yilda bo‘lib o‘tgan Gavgamela jangi falanga va otliq qo‘shinlarning birgalikda qo‘llanilishi samaradorligini namoyon etgan bo‘lsa, miloddan avvalgi 216-yildagi Kan jangi legionlarning otliq qo‘shinlar qarshisidagi zaif tomonlarini ko‘rsatib berdi **[4.11].** Miloddan avvalgi 168-yilda sodir bo‘lgan Pidna jangida esa Rim legionlarining falanga ustidan ustunligi yaqqol namoyon bo‘ldi **[5.130].** Shuningdek, miloddan avvalgi 53-yilda yuz bergan Karrax jangi Markaziy Osiyo otliq qo‘shinlari taktikasi Rim legionlariga qarshi hal qiluvchi g‘alabaga erishishga qodir ekanligini isbotladi. Ushbu maqolada aynan shu uch harbiy tizimning qurollanishi, tuzilishi va taktikasi yagona hamda uzviy tahlil doirasida qiyosiy o‘rganiladi **[9].**

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning manba bazasi antik davr tarixchilari asarlari, zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari hamda harbiy san’at va harbiy tashkilotlar tarixiga oid ilmiy adabiyotlardan tashkil topgan. Qadimgi Yunoniston falangasi, Rim legionlari va Markaziy Osiyo otliq qo‘shinlarining qurollanish tizimi, jangovar tuzilishi hamda taktik xususiyatlarini o‘rganishda, avvalo, voqealarga yaqin davrda yashagan va ularning bevosita guvohi yoki zamondoshi bo‘lgan mualliflarning asarlariga murojaat qilindi. Ushbu manbalar antik davr harbiy san’atining rivojlanishi, qo‘shinlarning tashkiliy tuzilishi va jang olib borish usullarini tiklash imkonini beradi.

Tadqiqotda foydalanilgan eng muhim manbalardan biri Gerodotning “Tarix” asaridir. Mazkur asarda Markaziy Osiyoda yashagan sak va massaget qabilalarining siyosiy hayoti, harbiy an’analari, qurol-yarog‘lari va jangovar tayyorgarligi haqida muhim ma’lumotlar keltiriladi. Gerodot ma’lumotlari ko‘chmanchi xalqlarning otliq qo‘shinlari, ularning kamondan foydalanish mahorati hamda harakatchan jang usullarini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, sak va massagetlarning jang maydonida tezkor manevr qilish qobiliyati keyinchalik Markaziy Osiyo harbiy an’analarining asosiy xususiyatlaridan biriga aylanganini ko‘rish mumkin.

Shuningdek, Rim harbiy tizimi va Makedoniya falangasining o‘zaro kurashi masalalarini yoritishda esa Polibiyning “Umumjahon tarixi” asari muhim o‘rin tutadi. Muallif Rim legionlarining manipula va kogorta tizimiga asoslangan tuzilishi, ularning intizomi, jangovar tayyorgarligi va qo‘mondonlik tizimini batafsil tasvirlaydi. Shuningdek, Pidna jangining tafsilotlari orqali legionlarning falangaga nisbatan ustun tomonlari, xususan, notekis relyef sharoitida harakat qilish va tezkor qayta safarbar bo‘lish imkoniyatlari ochib beriladi. Ushbu ma’lumotlar falanga va legion tizimlarining o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Shu bilan birga, Rim legionlarining boshqa harbiy tizimlar bilan to‘qnashuvlarini o‘rganishda Plutarxning “Krass” nomli biografik asari muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarda Mark Krass boshchiligidagi Rim legionlarining Parfiya qo‘shinlariga qarshi yurishi, jangning strategik va taktik jihatlari hamda rimliklarning mag‘lubiyatiga sabab bo‘lgan omillar batafsil yoritilgan. Ayniqsa, parfiya otliq kamonchilari va og‘ir qurollangan kataphraktlarning uyg‘un harakati legionlarning an’anaviy jangovar usullariga qarshi samarali qo‘llangani ko‘rsatib beriladi. Bu esa Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda shakllangan otliq qo‘shinlar taktikasi hamda ularning jangovar imkoniyatlarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalalarni yanada

kengroq yoritishda Arrianning “Aleksandr yurishlari” asari alohida o‘rin tutadi. Ushbu asarda Aleksandr Makedonskiy va Doro III qo‘shinlari o‘rtasidagi Gavgamela jangining tafsilotlari batafsil bayon qilinib, fors armiyasi tarkibida jang qilgan sak otliqlari va boshqa ko‘chmanchi jangchilarning ishtiroki ham qayd etiladi. Ushbu ma’lumotlar falanga, og‘ir otliq qo‘shin va yengil qurollangan otliq kuchlarning o‘zaro hamkorligini hamda ularning jang maydonidagi rolini tahlil qilish imkonini beradi.

Biroq, mazkur masalalarni yanada chuqurroq o‘rganish va tarixiy manbalardagi ma’lumotlarni ilmiy jihatdan izohlashda zamonaviy tarixshunoslikda yaratilgan tadqiqotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli antik manbalar bilan bir qatorda zamonaviy ilmiy adabiyotlardan ham keng foydalanildi. Jumladan, R. Rajabovning “Qadimgi dunyo tarixi” o‘quv qo‘llanmasi, Y. S. Krushkol tahriri ostida nashr etilgan “Qadimgi dunyo tarixi” asari hamda qadimgi harbiy san’at, harbiy taktika, qurollanish tizimi va qo‘shinlarning evolyutsiyasiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar tahlilga jalb qilindi. Mazkur adabiyotlar antik davr armiyalarining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, ularning jangovar salohiyati, tashkiliy tuzilishi hamda harbiy islohotlarini zamonaviy tarixiy yondashuvlar asosida har tomonlama baholash imkonini berdi.

Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot metodologik jihatdan tarixiy-qiyosiy tahlil metodiga tayangan holda olib borildi hamda unda tarixiylik, xolislik, tizimlilik va kompleks yondashuv tamoyillari izchil qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida birinchi navbatda Qadimgi Yunoniston falangasi, Rim legionlari hamda Markaziy Osiyo hududida shakllangan sak, massaget va parfiya otliq qo‘shinlarining qurollanish tizimi, himoya vositalari, jangovar saf tuzilishi va harbiy tashkiloti mavjud manbalar asosida alohida o‘rganilib chiqildi. Shundan so‘ng ikkinchi bosqichda mazkur harbiy tizimlar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar chuqur qiyosiy tahlil qilinib, ularning har biri uchun xos bo‘lgan kuchli va zaif tomonlar ilmiy asosda aniqlab berildi. Keyingi bosqichda esa olingan nazariy xulosalarni amaliy jihatdan asoslash maqsadida Gavgamela, Kan, Pidna va Karrax janglari misolida falanga, legion hamda otliq qo‘shinlar taktikasining real jangovar sharoitdagi samaradorligi baholandi. Ushbu jarayonda janglarning borishi, qo‘shinlarning jang maydonidagi joylashuvi, qurollanish darajasi hamda taktik manevrlarining o‘ziga xos xususiyatlari atroflicha tahlil qilinib, ilgari surilgan nazariy qarashlar tarixiy faktlar bilan mustahkamlandi. Natijada tadqiqot davomida antik davrga xos bo‘lgan uch yirik harbiy tizim — yunon falangasi, Rim legionlari va Markaziy Osiyo otliq qo‘shinlarining rivojlanish xususiyatlari, harbiy san’at tarixidagi tutgan o‘rni hamda o‘zaro tafovutlari kompleks va qiyosiy yondashuv asosida yaxlit ilmiy talqinda yoritib berildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Shu jihatdan, qadimgi harbiy tizimlar evolyutsiyasini tahlil qilib chiqilganda, Qadimgi Yunoniston harbiy tizimining negizini falanga tashkil etgan bo‘lib, u miloddan avvalgi VII asrda shakllangan og‘ir qurollangan piyoda jangchilar — goplitlarning zich va ko‘p qatorli jangovar saf tortishidan iborat edi **[8].** Bu tizimda har bir hoplit diametri taxminan 90 santimetr bo‘lgan aspis (hoplon) deb ataluvchi yumaloq qalqon, 2,4-2,7 metr uzunlikdagi doriy nayza hamda xifos qisqa qilichi bilan qurollangan holda jangga kirar, jangchilar odatda 8 qator chuqurlikda saf tortib, qalqonlarini bir-biriga tutashtirgan holda yagona himoya devorini hosil qilgan tarzda harakatlanardi **[10].** Shu bilan birga, ushbu jangovar tizimning samaradorligi miloddan avvalgi 490-yildagi Marafon jangida hamda miloddan avvalgi 480-yildagi Fermopil daralaridagi jangda, qirol Leonid boshchiligidagi

spartaliklar misolida yaqqol namoyon bo‘lgan bo‘lib, falanganing asosiy kuchi aynan uning jipsligida mujassam edi. Biroq shu jihat uning zaif tomoniga ham aylanib, yon tomonlardan o‘rab olinishi yoki notekis relyef sharoitida safning buzilishi falanganing butun jangovar qudratini yo‘qotishga olib kelgan **[5.122].**

Shuningdek, tarixiy jarayonlar tahliliga ko‘ra, keyinchalik falanganing tubdan isloh qilinishi miloddan avvalgi 359-336-yillarda hukmronlik qilgan Makedoniya qiroli Filipp II nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u an’anaviy doriy nayza o‘rniga sarissa deb ataluvchi 5,5-6 metrli uzun nayzani joriy etgan hamda jangchi sonini 16 qatorgacha ko‘paytirgan, natijada falanga jabhasi 5-6 qator nayza uchi bilan qoplangan haqiqiy “temir o‘rmon” ko‘rinishiga kelgan **[11].**

Shu bilan birga, uning o‘g‘li Aleksandr Makedonskiy esa ushbu tizimni hetayrlar deb ataluvchi og‘ir otliq qo‘shin bilan uyg‘unlashtirib, “bolg‘a va sandon” taktikasini yaratgan holda, falanga dushmanni markazda ushlab turgan bir paytda otliq qo‘shin yon tomondan hal qiluvchi zarbani amalga oshirgan. Aynan shu taktika miloddan avvalgi 331-yil 1-oktabrda bo‘lib o‘tgan Gavgamela jangida sinovdan o‘tgan bo‘lib, ushbu jangda fors qiroli Doro III qo‘shini tarkibida sak (skif) otliq jangchilari ham ishtirok etgan bo‘lsa-da, yakunda Aleksandr qo‘shini g‘alaba qozongan; bu voqea, bir tomondan, Makedoniya falangasining yuksak jangovar salohiyatini yaqqol namoyon etgan bo‘lsa, boshqa tomondan esa piyoda va otliq qo‘shinlarning o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilishi naqadar samarali natija berishini ham isbotlab bergan.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Rim legionining shakllanish tarixi ham aynan harbiy tuzilma va taktikalarning izchil evolyutsiyasi jarayonida yuzaga kelgan bo‘lib, u ancha murakkab rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Dastlabki davrlarda, ya’ni podsho Servius Tulliy davriga oid (miloddan avvalgi VI asr) Rim qo‘shini yunon-etrusk falangasi namunasida tuzilgan bo‘lsa, keyinchalik miloddan avvalgi IV asr boshlarida, gallar tomonidan Rimning talon-taroj qilinishidan (miloddan avvalgi 390-yil) so‘ng o‘tkazilgan islohotlar natijasida u tubdan qayta tashkil etilib, manipula tizimiga asoslangan legion shakliga o‘tgan **[6.215].** Bu legion uch qatorga, ya’ni yosh jangchilardan iborat hastati, tajribali principes hamda faxriy triariy qatorlariga bo‘lingan holda tashkil etilib, har bir jangchi avval pilum deb ataluvchi og‘ir otqi nayzani dushman safiga uloqtirgan, so‘ngra esa gladius qisqa qilichi bilan yaqin jangga kirishgan. Shu tariqa, legionning ushbu bo‘linmali tuzilishi falanganing yagona va qattiq safidan farqli ravishda har bir manipulaning mustaqil harakatlanishiga hamda notekis relyef sharoitida ham jangovar tartibni saqlab qolishiga imkon yaratgan.

Biroq, legionning ham jiddiy zaif nuqtasi mavjud edi: otliq qo‘shin yetishmovchiligi. Bu holat mil. avv. 216-yil 2-avgustda bo‘lib o‘tgan Kanne jangida ayniqsa fojiali tarzda namoyon bo‘ldi. Karfagenlik sarkarda Gannibal Barka konsullar Lutsiy Emiliy Pavl va Gay Terentsiy Varron boshchiligidagi rim legionlarini numidiyalik va gall otliqlari yordamida ikki tomondan o‘rab olib, deyarli to‘liq qirib tashladi; qadimgi mualliflarning yozishicha, bir kunda 50-70 ming Rim askari halok bo‘lgan **[2.115].** Bu Rim tarixidagi eng og‘ir mag‘lubiyatlardan biri sifatida qayd etiladi. Ushbu mag‘lubiyatdan keyingi tarixiy rivojlanish jarayonida, miloddan avvalgi 107-yilda konsul Gay Mariy o‘tkazgan islohotlar natijasida Rim legionining tuzilmasi tubdan o‘zgardi: mulkiy senz tizimidan voz kechilib, professional armiya shakllantirildi, qurol-yarog‘lar standartlashtirildi hamda manipula o‘rnini kogorta — har biri taxminan 480 askardan iborat 10 ta

bo‘linmadan tashkil topgan asosiy jangovar birlik — egalladi, bu esa legion boshqaruvini yanada moslashuvchan va samarali qildi.

Shu tariqa shakllangan yangi harbiy tizimning amaliy ustunligi keyinchalik falanga bilan bevosita to‘qnashuvda yaqqol namoyon bo‘lgan bo‘lib, miloddan avvalgi 168-yil 22-iyunda Pidna jangida konsul Lutsiy Emiliy Pavl (Kan jangidagi mashhur sarkardaning o‘g‘li) boshchiligidagi Rim legionlari Makedoniya qiroli Perseyning falangasiga qarshi hal qiluvchi g‘alaba qozongan. Bu jang Rim legionining manevrchanligi va kogorta tizimining moslashuvchanligi falanganing qat’iy, zich saf tuzilmasiga nisbatan ustun ekanini ko‘rsatgan muhim tarixiy burilish sifatida baholanadi. Shu nuqtayi nazardan, tarixchi Polibiy tahliliga ko‘ra, falanga tekis maydonda yengilmas kuch bo‘lsa-da, tog‘li va notekis relyef sharoitida uning yagona safi bo‘linib ketgan, natijada legionerlar manipula bo‘linmalari oralig‘idan foydalanib falanga ichiga kirib borishga muvaffaq bo‘lganlar **(2.18).** Bu esa Rim harbiy tizimining individual harakat va moslashuvchanlikka asoslangan ustunligini yanada yaqqol namoyon etgan. Shuningdek, ushbu jang, undan oldinroq bo‘lib o‘tgan miloddan avvalgi 197-yildagi Kinoskefal jangi bilan birga, qadimgi yunon falangasi davrining yakunlanishini va Rim legion tizimining harbiy ustunligini butun antik dunyoga amaliy jihatdan isbotlab bergan hal qiluvchi tarixiy burilish sifatida baholanadi. Shu jihatdan qaralganda esa, antik harbiy taraqqiyot faqat Yevropa va O‘rta yer dengizi mintaqasi bilan cheklanib qolmay, balki turli hududlarda o‘ziga xos strategik yo‘nalishlarda shakllangan murakkab tizim sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Markaziy Osiyoning sak va massaget xalqlari esa butunlay boshqa harbiy falsafaga, ya’ni otliq harakatchanlik va tezkor manevrga asoslangan tizimni shakllantirgan edi. Shu nuqtayi nazardan tarixiy manbalarga tayangan holda qaralganda, Gerodotning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi 530-yilda massagetlar malikasi To‘miris boshchiligidagi qo‘shin Sirdaryo bo‘ylarida Ahamoniylar shohi Buyuk Kirni mag‘lub etib, uni halok qilgan **[1.201–216].** Bu esa ularning harbiy qudrati nafaqat mintaqaviy, balki yirik imperiyalar darajasida ham hal qiluvchi ta’sir ko‘rsata olganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, sak va massaget otliqlari kompozit yoy hamda akinak deb ataluvchi qisqa xanjar-qilich bilan qurollangan bo‘lib, ularning jangovar mahorati bolalikdan ot minishga o‘rgangan ko‘chmanchi turmush tarzi bilan bevosita va uzviy bog‘liq edi. Shuningdek, Forslarning Behistun yozuvlarida tilga olingan sak tigraxauda (“uchli boshli sak”) va sak xaumavarga kabi qabilalar nafaqat yengil otliq kamonchilardan iborat bo‘lgan, balki qisman zirhlangan og‘ir otliq bo‘linmalarini ham tashkil etgan **(7).** Bu esa Markaziy Osiyo harbiy tizimining ham ichki jihatdan murakkab, ko‘p qatlamli va turli jangovar vazifalarni bajarishga moslashgan professional tuzilma ekanini yaqqol namoyon etadi.

Shu jihatdan qaralganda, Markaziy Osiyo otliq an’analarining eng yetuk ko‘rinishi miloddan avvalgi 247-yildan milodiy 224-yilgacha mavjud bo‘lgan Parfiya shohligi harbiy tizimida, xususan uning otliq qo‘shinlari tarkibida yaqqol ifodasini topgan. Parfiyaliklar ikki turdagi otliqni — yengil kamonchilar va kataphrakt deb ataluvchi, ham oti, ham o‘zi to‘liq zirh bilan qoplangan og‘ir nayzador otliqlarni — uyg‘un tarzda qo‘llagan **[12].** Mil. avv. 53-yilda bo‘lib o‘tgan Karrax jangida parfiyalik sarkarda Surena rim triumviri Mark Litsiniy Krass boshchiligidagi yetti legionni — taxminan 35-40 ming askarni — mahv etdi. Plutarxning tasvirlashicha, parfiya otliq kamonchilari tuyalarda

tashilgan zaxira o‘qlar yordamida legionerlarni uzluksiz o‘q yomg‘iriga tutib, hatto soxta chekinish chog‘ida ham orqaga o‘girilib otish, ya’ni “parfiyan otishi” taktikasini qo‘llagan, holdan toygan legionlarga esa kataphraktlar hal qiluvchi zarbani berishgan **[3.24]**. Jang natijasida Krass halok bo‘lib, taxminan 20 ming rim askari qirilgan, 10 mingga yaqini esa asirga olingan — bu Rim tarixidagi eng og‘ir harbiy falokatlardan biri sifatida qayd etiladi.

Uch harbiy tizimni qiyoslab tahlil qilinganda, ularning har biri o‘ziga xos jug‘rofiy-ijtimoiy sharoit asosida shakllanganligi yaqqol ko‘rinadi. Yunon falangasi tekis dasht va vodiylarda jang qiluvchi erkin fuqarolar-jangchilarning jamoaviy jasoratiga, Rim legioni esa professional, intizomli va istalgan relyefga moslasha oladigan davlat armiyasiga, Markaziy Osiyo otliq qo‘shini esa ko‘chmanchi xo‘jalik tizimida tug‘ilib voyaga yetgan, bolalikdan ot va yoy bilan oshno bo‘lgan jangchilarning tabiiy harakatchanligiga tayangan. Qurol-yarog‘ jihatidan ham farq sezilarli: falanga va legion yaqin masofadagi zarba kuchiga (nayza va qilich), Markaziy Osiyo otliqlari esa masofadan otish va tezkor manyovrga (kamon va akinak) ustuvorlik bergan. Taktik jihatdan falanga statik va frontal zarbaga, legion moslashuvchan bo‘linmali harakatga, otliq qo‘shin esa dinamik o‘rab olish va soxta chekinishga asoslangan. Bu uch tizimning o‘zaro to‘qnashuvlari shuni ko‘rsatadiki, har bir tizim o‘ziga mos sharoitda yengilmas, ammo notanish sharoitda ojiz bo‘lgan: falanga ochiq tekislikda kuchli, lekin notekis yer va yon tomondan hujumga zaif edi. Legion yon-atrofdan otliq qo‘shin bilan to‘ldirilmasa (Kanda bo‘lgani kabi), og‘ir mag‘lubiyatga uchragan; Markaziy Osiyo otliq qo‘shini esa ochiq dashtlarda tengsiz, biroq qamal va mustahkamlangan istehkomlar oldida samarasiz bo‘lgan. Qizig‘i shundaki, Rim o‘zining Kan va Karrax kabi mag‘lubiyatlaridan saboq olib, keyinchalik, milodiy II–III asrlardan boshlab, aynan Sarmat va Parfiya namunasida o‘zining kataphraktariy hamda klibanariy deb ataluvchi og‘ir otliq bo‘linmalarini tashkil etdi — bu esa uch harbiy an’ananing bir-biriga uzluksiz ta’sir ko‘rsatib, o‘zaro boyitilganligining yorqin dalilidir.

XULOSA

Yakuniy xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, qadimgi Yunoniston falangasi piyoda jangchining jamoaviy zarba kuchiga, Rim legioni intizom va tashkiliy moslashuvchanlikka, Markaziy Osiyo sak, massaget va parfiya otliq qo‘shinlari esa harakatchanlik va masofadan otishga asoslangan uchta mustaqil, ammo bir-biri bilan tarixiy taqdirdosh harbiy tizimni ifodalaydi. Gavgamela, Kanne, Pidna va Karrax janglari aynan shu uch tizimning o‘zaro kuch sinashuvi natijasida jahon harbiy san’atining keyingi taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ushbu uch an’ananing o‘zaro ta’siri va bir-biridan o‘rganishi antik davr harbiy tarixini insoniyat sivilizatsiyasi rivojidagi eng dinamik va ta’sirchan jarayonlardan biriga aylantirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Gerodot. Tarix (rus tilidan tarjima). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – 560 b.
2. Polibiy. Umumjahon tarixi (rus tilidagi nashri). – Moskva: Olma-Press, 2004. – 768 b.
3. Plutarx. Qiyoslama tarjimai hollar (rus tilidagi nashri). – Moskva: Nauka, 1994. – 704 b.

4. Arrian. Aleksandr yurishlari (Anabasis Aleksandri) / rus tilidan tarjima. – Moskva: Mif, 1993. – 368 b.
5. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi (Sharq, Yunoniston, Rim): o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2009. – 384 b.
6. Qadimgi dunyo tarixi. (Krushkol Yu.S. tahriri ostida), II qism. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975. – 416 b.
7. Sagdullayev A. Qadimgi Markaziy Osiyo tarixi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Universitet, 2004. – 208 b.
8. Britannica, The Editors of Encyclopaedia. "Phalanx". Encyclopedia Britannica. – URL: https://www.britannica.com/topic/phalanx-military-formation
9. “Battle of Carrhae”. Wikipedia, The Free Encyclopedia. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Battle_of_Carrhae
10. “Phalanx”. Wikipedia, The Free Encyclopedia. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Phalanx
11. “Sarissa”. Wikipedia, The Free Encyclopedia. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Sarissa
12. “Cataphract”. Wikipedia, The Free Encyclopedia. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Cataphract